

**BADIIY ASAR TARJIMASIDA MILLIY KOLORIT VA  
REALIYALARNI YETKAZISH****Shahina Muzaffar qizi Meyliyeva***QarDU, Xorijiy tillar fakulteti, Tarjima nazariyasi va amaliyoti  
yo'nalishi talabasi**Ilmiy rahbar: Dilmurod Yo'ldoshev*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada milliy kolorit va realiyalarning (milliy xos so'zlarning) badiiy asar tarjimasida hamda adabiyotda tutgan o'rni, vazifalari, qo'llanishi va ularni tarjima qilishdagi eng maqbul usullari bayon qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *Kolorit, transliteratsiya, analogiya, milliy xos so'zlar, realiya, mahalliy kolorit, o'tkan kunlar.*

**Abstract:** *This article explores the role, functions, and applications of national color and cultural realia (nation-specific terms) in literary translation, as well as the most effective methods for conveying them in translation.*

**Keywords:** *Color, transliteration, analogy, nation-specific terms, cultural, realia, national color, bygone days.*

**Kirish**

Barchamizga ma'lumki tarjima bu shunchaki bir tilni boshqa bir tilga o'girish bo'libgina qolmay, u xalqlar o'rtasidagi madaniy va adabiy aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy tarjima jarayonida tarjimon muallif matnini qayta yaratuvchi ijodkor sifatida namoyon bo'ladi. Tarjima-bu o'ta nozik jarayon bo'lib, bunda tarjimon til bilishdan tashqari, bir qancha qobiliyatlarga, bilimga ega bo'lishi, matnni qayta yaratish ustida tinimsiz izlanishlar olib borishi talab etiladi. Chunki har bir millatning, xalqning o'z tarixi, madaniyati, an'analari, orzu umidlari va turli sharoitlari bo'ladi. Shunday ekan, badiiy asarlarda milliy xos so'zlar uchraydi va tarjimonning vazifalari ularni o'quvchiga to'g'ri yetkazib berish bo'ladi. Tarjima jarayonida muallifning uslubi, asarda aks etgan milliy muhit hamda realiyalarni saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan milliy kolorit va milliy xos so'zlar badiiy asarning o'ziga xosligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli ularni to'g'ri va o'rinli yetkazish tarjimaning badiiy va estetik qiymatini belgilaydi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Tarjimada milliy koloritni saqlash masalalarini o'rganish jarayonida tarjima va amaliyoti sohasi bo'yicha oldin izlanish olib brogan

tarjimashunoslarning metod va uslublaridan,jumladan,E Ochilovning “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”,G’aybulla Salomovning “Tarjima nazariyasi asoslari”,H Hamroyevning “Milliy xos so’zlar-realiyalar va badiiy tarjima//Tarjima madaniyati (maqolalar to’plami),I G’ofurovning “Tarjima nazariyasi” asarlaridan foydalanib xulosalar berildi.

### **Natijalar va muhokamalar**

Tarjimon badiiy matnni boshqa tilga ko’chirar ekan,asarning mazmuni bilan bir qatorda uning uslubiy xususiyatlari,obrazlar tizimi hamda milliy koloritini saqlashga intiladi.Badiiy asarning milliy shaklini qayta tiklash tarjimaning muhim muammolaridan biri hisoblanadi.Badiiy obrazni qayta yaratishda tarjimon ishining birinchi bosqichi obraz yaratilgan millatning tarixi,ijtimoiy ,adabiy sharoitlarini o’rganishdir. Undan keying bosqich xarakterning asosiy belgilarini,uning mzmunini belgilash.Shundan keyin obraz yaratilishi kerak bo’lgan asliyat tilining vositalarini va uslubiy yo’llarini tahlil qilishi hamda oxiri ona tilida kerakli vositalarni qidirib toppish kerak.Tarjimada til almashada ,lekin milliylik qoladi.Kolorit va realiya tushunchalariga ta’rif beradigan bo’lsak: “Kolorit”so’zi lotincha “kolor”,italyancha “kolorito”so’zidan kelib chiqqan bo’lib ,rang, jilo kabi ma’nolarni anglatadi. “Kolorit”deganda tasviriy san’atda real hayotni aniq aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o’zaro munosibligi tushunilsa,badiiy tarjimada bu iborani biror narsaning o’ziga xos belgi va xususiyatlari majmui deyish mumkin .Chunki,voqelikni ta’sirli tasvirlash vositasining tarkibiy qismi bo’lgan “Kolorit” asarning g’oyasi,mazmuni davri,uslubi hamda muallifning shaxsiga bog’liq bo’ladi.Ana shu milliy kolorit bilan bog’liq bo’lgan so’z va atamalar realiyalar,boshqacha aytganda,milliy xos so’zlar deyiladi.Shu o’rinda milliylik so’ziga ta’rif berib o’tsak: Miliylik u yoki bu millatning ma’naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o’ziga xoslikdir.

Ma’naviy faoliyat kishilarning xarakteri,tafakkur tarzi, ruhiyati, intilishlari, qiliqlari,yumor xususiyatlari va boshqalarni o’z ichiga oladi.

Moddiy hayot esa urf-odat, rasm-rusum, marosimlar, kiyimlar, uy-ro’zg’or anjomlari,cholg’u asboblari,pazandachilik,ismlar va hokazolar.Badiiy asarda aks etgan ana shu milliy xususiyatlar yig’indisi adabiyotshunoslikda milliy kolorit deyiladi.Adabiyotshunoslikda yana mahalliy kolorit degan tushuncha ham mavjud.Mahalliy kolorit-biror mahalliy sharoit,urf-odat yoki joyga xos turmush,peyzaj va til xususiyatlarini badiiy adabiyotda aks ettirish.

“Realiya” lotincha so’z bo’lib,buyumga,narsaga oid degan ma’noni bildiradi. Realiyalar asar tilining ajralmas qismi bo’lib,ular yordamida muallif qahramon obrazini yaratadi,xalqning milliy xususiyati tasvirlab beradi.Ular badiiy asarning milliy Realija koloritini ifoda etadi,turli uslubiy vazifalarni bajaradi,hodisa va predmetlarning xususiyatini haqqoniy,to’g’ri tasvirlashga yordam beradi.Shuning uchun ham realiyalar badiiy

tarjimaning tarjimonni qiynab qo'yadigan, tarjimani murakkablashtiradigan, ko'pincha uni chalg'itadigan jihatlarni tashkil etadi.

Realialarga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholg'u asboblari, ro'zg'or anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shahar, qishloq xususiyatlari, me'morchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, hayvon va o'simliklarning nomlari, daraja, unvon, tabaqa va boshqa bo'linishlarni ifodalovchi so'zlar, muassasalar, tashkilotlar, diniy marosimlar, va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so'z va iboralar kiradi. O'zbek adabiyoti durdona asarlarida ham shunday milliy xos so'zlar talaygina.

O'zbek adabiyotining purviqor siymolaridan biri Abdulla Qodiriy ijodining gultoiji- "O'tkan kunlar" romanining ilk boblari yozila boshlaganiga bu yil qariyb 104 yil to'ladi va bu asar ham o'zbek xalqiga xos realialar, madaniyatga oid so'zlar bilan to'yingan. Masalan, to'y, sarpa, do'ppi, ariq, mahalla, xotin-xalaj kabi birliklar ingliz tilida turlicha ifodalanadi. Asar Kerol Ermakova tomonidan "Days Gone By" va Mark riz tomonidan "Bygone Days" nomi bilan ingliz tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan. Bunda ikki tarjimon ham milliy xos so'zlarni iloji boricha to'g'ri tarjima qilishga harakat qilishgan.

Xos so'zlarni tarjima qilishning uch usuli bor:

1-usul. Transliteratsiya: bir yozuv harflarini boshqa til yozuv harflari bilan berish. Tarjimada joy va kishi nomlari, turli atamalar va milliy xos so'zlarni boshqa til belgilari bilan aynan ko'rsatib berish, tarjimada transliteratsiya orqali so'zlarni o'girish tarjima tilida realialarga mos ekvivalentlarning yo'qligi bilan sharhlanadi. O'tgan kunlar asaridan Yusufbek Xoji -Yusufbek hadji tarzida, Qushbegi-Kushbegi, Musulmonqul-Musulmonkul, Otabek-Atabek, Mirzaboshi-Mirzabashi, Nur Muhammad-Nar Mohammed kabi ko'pgina so'zlar transliteratsiya usulida ingliz tiliga o'girilgan. "Mahalla"-mahalla kabi tarjima qilinganini ko'rishimiz mumkin.

2-usul. Analogiya: bu o'xshashlik yoki boshqasiga o'xshashlik, ya'ni muqobil tushuncha bilan berish. Analogiya usuli "Yaqin tarjima" deb ham yuritiladi, lekin bu termin nomidan ko'rinib turganidek asl nusxadagi milliy xos so'zlarning barcha vazifalarini, ma'no qirralarini ko'rsatib berolmaydi. "Sarpa" so'zi ceremonial gift kabi tarjima qilinganini bu usulga misol qilib keltirishimiz mumkin.

3-usul. Yangi so'z va so'z birikmasi yaratish. Ba'zi tarjimonlar milliy xos so'zlar va iboralarni shunday tarjima qilib oladilarki, bu hol ko'pincha o'zini oqlamaydi. Shuning uchun, o'z me'yorida iloji boricha ma'noni yetkazib tarjima qilish zarur.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, badiiy asar tarjimasida milliy kolorit va realialar muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular asarning ruhini, madaniy muhitini va muallif uslubini saqlab qolishda asosiy vosita hisoblanadi. Tarjimon nafaqat xorijiy tillarni balki o'z tilining

grammatikasi,leksikologiyasi,stilistikasini va eng muhimi tarjima qilayotganda turli madaniy bilimlarga ega bo'lishi kerak bo'ladi.Asliyatdagi milliy o'ziga xoslikni tarjimada aks ettirish masalasi tarjimashunoslikda atroflicha o'rganilgan soha.Shunga ko'ra tarjimon har bir realiya va milliy so'zga alohida e'tibor bilan yondashishi,ulani tarjima qilishda esa yuqoridagi usullardan oqilona foydalanishi zarur.Chunki milliy koloritning to'g'ri va o'rinli yetkazilishi asarning badiiy qiymatini saqlab qolish bilan birga,o'quvchiga muallif yaratgan milliy muhitni to'laqonli his etish imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1-E.Ochilov.Tarjima nazariyasi va amaliyoti
- 2-Hamroyev H.Milliy xos so'zlar-realiyalar va badiiy tarjima//Tarjima madaniyati(maqolalar to'plami)Toshkent
- 3-Salomov G'.Tarjima nazariyasi asoslari.
- 4-www.oriens.uz
- 5-Abdulla Qodiriy.O'tkan kunlar. "Sharq" nashriyoti.Toshkent